ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

TA'LIM-TARBIYA VA PEDAGOGIK FIKRLAR XORIJIY RIVOJLANGAN DAVLATLARDA

Termiz davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi:
Niyozova Safiya Bukayevna
+998901152403
safiya@gmail.com

Annotatsiya: Rivojlangan davlatlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o`zgarishlar va ilg`or tajribalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida foydalanish haqida so`z yuritilgan
Kalit so`zlar: Rivojlangan davlatlar, ta'lim-tarbiya, o`quvchilar, pedagogika, maktab.
Аннотатсия: Обсуждаются изменения в образовательном процессе развитых стран и использование лучших практик в образовательной системе нашей страны.
Ключевые слова: Развитые страны, образование, учащиеся, педагогика, школа.
Abstract: Changes in the educational process in developed countries and the use of best practices in the educational system of our country are discussed.
Key words: Developed countries, education, students, pedagogy, school.

Zamoning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yo'qotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq xalos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga ham ega bo'lamiz. Zotan, hozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi va manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyusiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning ta'limimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda chet el ta'limi bo'yicha ko'pgina makolalar, broshyuralar, qo'llanmalar chop etildi, unga bag'ishlab seminarlar, anjumanlar, o'quvlar, uchrashuvlar o'tkazildi.

Bu bizning ta'lim tizimlarimizda, chet ellarda o'quv tarbiya ishlarining qo'yilishiga etibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir. Xalq ta'limi tizimlarida chet el ta'limini o'rganish bilan shug'ullanuvchi muassasalar ham tashkil topmoqda. Xalq ta'limi vazirligidan tashqari bu masala bilan Respublika o'quv-metodika markazida, pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tarkibida maxsus bo'limlar faoliyat ko'rsatmoqda, malaka oshirish markaziy institutida bir qator kafedralar ish bilan shug'ullanmoqdalar.

Chet el ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQShning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalkaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, «Silm A. Sh.» firmasi, YuNESKO va YuNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermokdalar.

Darhaqiqat rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' miqdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda, masalan, «maktab muvaffaqqiyat va farovonlik timsoli»gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat e'tiborida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq Prezidenti R. Reyganni, Buyuk Britaniya Bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya Prezidenti F. Mitteranlarni maktab islohotining tashabbuskorlari deb, bejiz aytishmaydi. F.Mitteran maktabni «Jamiyatni harakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Germaniyada ularning soni 2 mingdan ortiq. Fransiya, AQSh, Yaponiya ta'lim-tarbiya nazariyasi muammolari bilan yuzlab davlat va xususiy tashkilotlar, universitetlar, pedagogik tadqiqot markazlari shug'ullanmoqdalar. Ular faoliyatini esa xalqaro ta'lim markazlari, masalan, AQShda xalqaro ta'lim instituti muvofiqlashtirib bormoqda. Ko'pchiligining faoliyati o'quv dasturini takomillashtirish va qayta qurishga qaratilgan.

80 - yillardan boshlab Buyuk Britaniyada ham AQShdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasi kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota - onalar ixtiyoridadir.

«Yangi dunyo»ning pedagogik g'oyalari Fransiya va Germaniya ta'limiga ham sezilarli ta'sir etayotir. Germaniya to'liqsiz o'rta maktablarida asosiy predmetlar bilan bir qatorda tanlab olinadigan ximiya, fizika, chet tillari kiritilgan o'quv Dasturlari ham amalga oshirilayotir. Bu o'quv dasturi tobora to'liqsiz o'rta maktab doirasidan chiqib, o'rta maktablar va gimnaziyalarni ham qamrab olmokda.

Fransiya boshlang'ich maktablarida ta'lim mazmuni ona tili va adabiyoti hamda matematikadan iborat asosiy, tarix, geografiya, aholishunoslik, tabiiy fanlar, mehnat, ta'limi, jismoniy va estetik tarbiya kabi yordamchi predmetlarga bo'linadi.

Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida bir qator farqlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'quv dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan, asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 80-yillarda tabiiy ilmiy ta'lim dasturi tarkibiga fizika, ximiya, biologiya, ba'zi hollarda astronomiya, geologiya, mineralogiya, fiziologiya» ekologiya elementlari kiritilib, u AQSh va Fransiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiyada 70-80-yillarda to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi.

Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 6-10 foiz o'quv soatlari ajratildi.

Mamlakatda ta'limni isloh qilish masalasi ko'pdan buyon muhokama qilinmokda, bunda o'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Hozir universitetlarda talabalar 4 yil o'qiydi. Ular o'qishga kirganlariga qadar korxonalarda bir necha yil ishlashlari yoki bundesverda xizmat qilishni hisobga olsak, talabalar xaqiqiy mehnat, faoliyatlarini ancha kech boshlayotganligini tushunamiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, O`zbekiston ta'limi o'ziga xos yo'nalishga, juda murakkab tizimga ega.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-10

Foydalanilgan adabiyotlar

1. IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES. World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Available Online at: https://www.scholarexpress.net. Vol. 27, October 2023. ISSN: 2749-361X
2. Innovatsion yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/5/1]. ISSN 2181-7324
3. IMPROVING THE PROCESS OF ENSURING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE STUDY OF ENVIRONMENTAL CONCEPTS IN EDUCATIONAL CLASSES IN PRIMARY SCHOOL. European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE). Available Online at: https://www.scholarzest.com. Vol. 2 No. 12, December 2021, ISSN: 2660-5643
4. Providing interdisciplinary integration in “education” lessons in primary grades. Society and innovations. Journal home page: https://inscience.uz/index.php/socinov/index
5. IMPROVING THE PROCESS OF PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN "EDUCATION" LESSONS IN PRIMARY GRADES. In Volume 3, Issue 10 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Oct., 2022.
6. Boshlang‘ich sinflarda “tarbiya” darslarida fanlararo integratsiyani ta’minlash jarayonini takomillashtirish. Ta’lim, fan va innovatsiya. 5-son. 2023-yil
7. CHARACTERISTICS OF ACHIEVING EFFICIENCY IN THE EDUCATION PROCESS BASED ON THE INNOVATION APPROACH. World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Available Online at: https://www.scholarexpress.net. Vol. 33, April 2024. ISSN: 2749-361X
8. Ниёзова Сафия. Норова Моҳиситора. Аҳамият ва нақши технологияҳои инноватсионӣ дар рушди. INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE. Volume 01, Issue 02, 2024
9. Ниёзова Сафия. Мансурова Замира. Оила манбаи асосии таълиму тарби. . INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE. Volume 01, Issue 02, 2024
10. O‘quvchilar aqliy tarbiyasini shakllantirishda sharq allomalarining qarashlari. Til va adabiyot. 2025-yil. 1-son.